

*Yuridik fanlar*

## XOTIN-QIZLAR TOMONIDAN SODIR ETILADIGAN JINOYATLARNING JINOIY- HUQUQIY VA KRIMINOLOGIK JIHATLARI

**Qilichova Kamola Luqmonxon qizi**

*Jizzax shahar IIB 1-son IIB HPB XQMB katta inspektori, leytenant*

*E-mail: kamolakilichova@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Ushbu tadqiqot ishida xotin-qizlar jinoyatchiligi tushunchasi, ularning turlari, xotin-qizlar tomonidan sodir etiladigan jinoyatlarning sabablari va ularga imkon bergan sharoitlar o'rganilib tahlil etilgan. Xotin-qizlar jinoyatchiligi uchun javobgarlik qo'llash masalalarida qonunda bo'shliq hosil qilib turgan holatlar va ularning amaliyotdagi muammo va yechimlari ko'rsatilgan. Bundan tashqari xotin-qizlar jinoyatchiligini oldini olishga hamda javobgarlik qo'llashga doir xorijiy davlatlarning qonunchiligi o'rganilib, ularning tahlili asosida mazkur faoliyat samaradorligini oshirish maqsadida taklif va tavsiyalar ishlab chiqilib milliy tizimga tadbiiq etish masalalari ko'rilgan.*

**Kalit So'zlar:** *Xotin-qizlar jinoyatchiligi, javobgarlik, Jinoyatchilik, Jinoyat, jinoyat-huquqiy belgilar, kriminologik belgilar.*

## CRIMINAL-LEGAL AND CRIMINOLOGY ASPECTS OF CRIMES COMMITTED BY WOMEN

**Annotation:** *The concept of women's criminality, their types, the causes of crimes committed by women and the conditions that made them possible are analyzed in this thesis. In the issues of responsibility for women's crimes, the cases created by the law and their practical problems and solutions are shown. In addition, the legislation of foreign countries on the prevention of women's crime and accountability was organized, based on their analysis, suggestions and recommendations were developed to increase the effectiveness of this activity and issues of implementation into the national system were considered.*

**Key Words:** *Women's criminality, responsibility, Criminality, Crime, criminal-legal signs, criminological signs.*

## УГОЛОВНО-ПРАВОВЫЕ И КРИМИНОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРЕСТУПЛЕНИЙ, СОВЕРШАЕМЫХ ЖЕНЩИНАМИ

**Аннотация:** *В диссертации анализируются понятие женской преступности, их виды, причины совершения преступлений женщинами и условия, которые сделали их возможными. В вопросах ответственности за преступления женщин показаны созданные законом случаи и их практические проблемы и пути решения. Кроме того, было организовано законодательство зарубежных стран по предупреждению*

*женской преступности и привлечению к ответственности, на основе их анализа разработаны предложения и рекомендации по повышению эффективности этой деятельности и рассмотрены вопросы внедрения в национальную систему.*

**Ключевые Слова:** *Женская преступность, ответственность, Преступность, Преступление, уголовно-правовые признаки, криминологические признаки.*

## KIRISH

Konstitutsiyaga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi o'zini demokratik, dunyoviy, huquqiy va ijtimoiy davlat sifatida tasdiqlaydi, uning oliy qadriyati inson, uning hayoti, huquq va erkinliklari hisoblanadi.

Shu munosabat bilan huquqshunoslik sohasida xotin-qizlar jinoyatchiligi kabi ijtimoiy hodisaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan xususiy va umumiy muammolarni har tomonlama tahlil qilish va ilmiy tadqiq etish bugungi kunda nazariy va amaliy tadqiqotlarning eng dolzarb, istiqbolli va strategik muhim yo'nalishlaridan biridir.

Respublikamizda xotin-qizlar jinoyatchiligining jinoiy-huquqiy hamda kriminologik jihalarini o'rganish, ularning oldini olish muhim va buni quyidagilar orqali izohlash mumkin:

*Birinchidan*, xotin-qizlar jinoyatchiligini oldini olishda avvalo zamonaviy ayol jinoyatchiligiga to'liq huquqiy-kriminologik ta'rif berish va xotin-qizlar jinoyatchiligining jinoiy-huquqiy tavsifi bn bog'liq tushunchalarni takomillashtirish va bu orqali jamiyatimizda to'g'ri fikrni uyg'otish;

*Ikkinchidan*, xotin-qizlar jinoyatchiligini jinoiy-huquqiy jihalarini o'rganish orqali kelgusida ayollar tomonidan sodir etilishi mumkin bo'lgan jinoyatlar uchun javobgarlikni qo'llash masalasini takomillashtirish hamda liberallashtirish;

*Uchinchidan*, xotin-qizlar jinoyatchiligi sohasida mavjud muammolarni ya'ni nazariya va amaliyot o'rtasida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish;

*To'rtinchidan*, xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va ularga javobgarlikni qo'llash masalari yuzasidan mutaxassislar fikrini o'rganish, aholi o'rtasida so'rovlar o'tkazish, natijalarni tahlil qilgan holda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning zaruratining mavjudligi.

Tadqiqotning ustuvor maqsadi xotin-qizlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi ijtimoiy-huquqiy nazorat amaliyotini takomillashtirish, xotin-qizlar tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlarga odilona javobgarlikni qo'llash hamda ular tomonidan jinoyatlarni sodir etishini oldini olish yuzasidan profilaktika faoliyatining turli darajalarida uni belgilovchi omillar va shart-sharoitlarga ta'sir ko'rsatish samaradorligini takomillashtirish mohiyatidan kelib chiqadigan muammolar majmuasini o'rganish va ko'rib chiqishdan iborat.

## ADABIYOLAR TAHLILI VA METODLAR

XX-asr boshlarida va inqilobdan keyingi birinchi yillarda Xotin-qizlar jinoyati unchalik e'tiborni tortmadi. Sababi o'rganilganda esa xotin-qizlar kam jinoyat sodir etgan, ularning ijtimoiy faolligi past edi. Ammo xotin-qizlar jinoyatchiligi to'liq sukut bilan chetlab o'tilmadi. Buni maishiy asarlar orasidan ko'plab ishlar - birinchi navbatda M. N. Gernetning asarlari tasdiqlaydi. Ularda nafaqat XIX-asr oxiri va XX-asr boshlarida xotin-qizlar jinoyati haqidagi statistik ma'lumotlar, balki uning sabablarini tushuntirish ham mavjud. Gender tenglik bilan bog'liq jinoyatlar statistik ma'lumotlarini tahlil qilib, M.N.Gernett bir vaqtning o'zida ayolni erkakdan ko'ra ko'proq jinoyatchi deb hisoblagan. Lombrosoning jinoiy antropologik maktabi haqida bir qator adolatli fikrlarni aytdi. Bu qarash ushbu maktabning jinoiy xatti-harakatlar mexanizmida organizmning anatomik va fiziologik xususiyatlariga bergan ahamiyatiga mos edi.

M.F.Zamenxof ham o'z asarlarida xotin-qizlar jinoyatini tasvirlab bergan, lekin u faqat statistik ma'lumotlarni tasvirlab bergan, lekin bunday hodisaning mavjudligini tushuntirmagan.

Serebryakova V.A. xotin-qizlar jinoyati masalasini o'rganishga katta e'tibor berdi, unga ko'ra jins bo'yicha Jinoyatchilikning farqini erkaklar va ayollarning xulq-atvorini belgilaydigan murakkab ijtimoiy omillar majmuasida izlash kerak. Xotin-qizlarning mavqei ishlab chiqarishda, kundalik hayotda va hokazolarda turlicha ish bilan ta'minlanishida ifodalangan o'ziga xos xususiyatlar mavjud. Mankovskiy B.S., Zverbuli A.K., Serediy E.V. va boshqalar kabi olimlarning xotin-qizlar jinoyati muammosiga e'tiborini ham qayd etishingiz mumkin.

Tadqiqot davomida analiz, sintez, deduksiya, induksiya, mantiqiylik, qiyosiy-huquqiy tahlil, empirik materiallarni va statistik ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish, kuzatish, tizimli yondashuv usullaridan foydalanilgan.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Xotin-qizlar jinoyati - ayollar tomonidan yoki ular ishtirokida sodir etilgan jinoiy jazoga tortiladigan qilmishlar majmuidir.

Olimlar tomonidan xotin-qizlar jinoyatchiligi o'rganilib quyidagicha xulosaga kelishgan: "Xotin-qizlar jinoyatchiligi deganda muayyan hudud(mamlakat yoki uning ma'muriy hududiy birligi)da, ma'lum davr (oy, chorak, yarim yil, to'qqiz oy, bir yil, ikki yil va boshqa muddatlar)da xotin-qizlar tomonidan ( 14 yoshdan yuqori) sodir etilgan barcha jinoyatlar majmuini o'z ichiga olgan, belgilangan miqdor va sifat ko'rsatkichlari bilan ta'riflanadigan, yashirin xususiyatga ega, nisbatan ommaviy, ob'ektiv, tarixiy o'zgaruvchan, ijtimoiy xavfli, ijtimoiy-huquqiy hodisa."<sup>1</sup>

Zamonaviy ayol jinoyatchiligi - bu bugungi kunning salbiy voqeliklari ta'sirida bo'lgan va o'ziga xosligi bilan jamiyatga, uning institutlari va jamoalariga, ayniqsa oilaga, umuman olganda, axloqiy-psixologik muhitga eng salbiy ta'sir ko'rsatadigan

<sup>1</sup> Kriminologiya. Umumiy qism: oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/I. Ismoilov, Q. Abdurasulova, I. Fazilov. 2015-y. b-59

murakkab o'zgaruvchan hodisa. Shu munosabat bilan bugungi kunda ayollar jinoyatchiligining hozirgi tendensiyalari, uning manbalari va sabablarini o'rganishga katta ehtiyoj sezilmoqda.

Xotin-qizlar jinoyatchiligining tarkibini jinoyat-huquqiy belgilarga ko'ra quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha taqsimlanish mumkin :

a) JK Maxsus qismi boblari (moddalari yoki ayrim moddalarining qismlari) bo'yicha;

b) ayb shakllari bo'yicha;

v) jazoning xususiyati bo'yicha;

g) ishtirokchilik shakli bo'yicha;

d) takroriylik belgisiga ko'ra;

e) sub'ektning o'ziga xos xususiyadariga ko'ra (voyaga etmaganlik, maxsus sub'ektlar, professionallar va h.k.).

Xotin-qizlar jinoyatchiligining tarkibini kriminologik belgilarga ko'ra quyidagicha taqsimlanishi mumkin:

a) hududiy belgiga ko'ra (viloyatlar, tumanlar, mintaqalar yoki alohida ob'ektlar bo'yicha);

b) xo'jalik yuritish, boshqarish yoki jamiyat hayoti tarmoqlari bo'yicha;

v) xususiyati va motivlariga ko'ra (davlatga qarshi jinoyatlar, g'arazgo'ylik jinoyatlari, zo'ravonlik jinoyatlari, ekologiya sohasidagi jinoyatlar, xalqaro jinoyadar va h.k.);

g) jinoyat sodir etilgan vaqt va joyga ko'ra;

d) jinoyat sodir etish qurollari (vositalari)ga ko'ra;

e) hududlar bo'yicha tarqalganligiga ko'ra.<sup>2</sup>

Xotin-qizlar jinoyatchiligining tarkibi, ayniqsa, jinoyatchining shaxsiga nisbatan, ijtimoiy- demografik belgilar ( yoshi, kasbi, qiziqishlari, turmush sharoilari, oilaviy ahvoli va h.k.)ga ko'ra ham taqsimlanadi.

1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning 11-moddasida quyidagicha bayon etilgan: "Jinoyat sodir etganlikda ayblangan har bir inson himoya uchun barcha imkoniyatlar ta'minlangan holda, ochiq sud majlisi yo'li bilan uning aybi qonuniy tartibda aniqlanmaguncha aybsiz deb hisoblanishga haqlidir. Hech kim, sodir etilgan vaqtda milliy qonunlar yoki xalqaro huquqlarga ko'ra jinoyat deb topilmagan xatti-harakati yoki faoliyatsizligi uchun jazoga hukm qilinishi mumkin emas. Shuningdek, jinoyat sodir etilgan vaqtda qo'llanishi mumkin bo'lgan jazoga nisbatan og'irroq jazo berilishi mumkin emas."

O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 16-moddasida " Jinoyat uchun javobgarlik va uning asoslari" ko'rsatilgan bo'lib quyidagicha ta'riflanadi: Jinoyat uchun javobgarlik- jinoyat sodir etishda aybdor bo'lgan shaxsga nisbatan sud tomonidan hukm qilish, jazo yoki boshqa huquqiy ta'sir chorasi qo'llanilishida

<sup>2</sup> Kriminologiya. Umumiy qism: oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/I. Ismoilov, Q. Abdurasulova, I. Fazilov. 2015-y

ifodalaniladigan jinoyat sodir etishning huquqiy oqibatidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda jinoyat uchun javobgarlik:1) o'zining yuridik mazmuniga ko'ra, jinoyatning huquqiy oqibati; 2) ijtimoiy xavfli va aybli qilmish oqibatida vujudga keladi; 3) sud tomonidan hukm qilish shaklidagi davlat majburlovida ifodalanib, jinoiy jazoni qo'llash yoki qo'llamaslik yoxud jinoyat huquqiga oid ta'sirning jinoiy jazo bo'lmagan boshqa ta'sir choralarida o'z aksini topadi; 4) jinoyat huquqiga oid munosabatlar vujudga keladi, amalga oshiriladi va yakunlanadi; 5) faqat sud tomonidan tayinlanadi.

Mamlakatimiz jinoiy huquqiy qonunchilik sohasida bo'shliq bo'lib turgan holat ularga javobgarlik masalasini qo'llashda qiyinchiliklarni yuzaga kelishi. Misol uchun sud tomonidan aybdorga Axloq tuzatish ishlari jazosi tayinlanishi jarayoniga shaxsning homiladorligi yoki og'ir kasalligi tufayli sud unga jazoni ijrosini kechikirishi mumkin. Ba'zi hollarda jinoyat sodir etgan xotin-qizlarning qasddan javobgarlikdan qochish maqsadida farzandli bo'lishga urinish holatlari uchrab turibdi. Undan tashqari xotin-qizlarni aynan shu jazo turi bo'yicha jazo ijro etilishining so'nggi davriga kelib subyektiv sabablarga ko'ra ijro etilmay qolish holatlari uchramoqda. Tadqiqot davomida bir qator davlallarning qonunchiligi o'rganilib chiqildi xususan: Rossiya Federatsiyasi JK ning 44 va 53<sup>1</sup>-moddalariga 2011-yil 7-dekabrda "Majburiy mehnat jazosi" qo'shilgan. Undan tashqari xotin-qizlar jinoyati uchun javobgarlikni belgilashda xorijiy davlatlarning qonunchiligi o'rganilganda xotin-qizlar bilan bog'liq ba'zi bir holatlar yengillashtiruvchi holatlar sifatida o'zlarning qonunchiligiga kiritilganligini ko'rish mumkin. Misol uchun, Belarus Respublikasi (63-m. 1-q. «5» b.) va Rossiya Federatsiyasi (61-m. 1-q. «g» b.) jinoyat qonunlarida «aybdorning yosh bolalari borligi»dan iborat jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida nazarda tutilgan bo'lsa-da, Rossiya Federatsiyasi JK bo'yicha aybdorning yosh bolasi mavjudligining o'zi hech bir qo'shimcha talablarsiz jazoni yengillashtiruvchi holat deb topiladi, ya'ni bola bilan birga yashash, uni tarbiyalash va moddiy jihatdan ta'minlash fakti rasman ahamiyatga ega bo'lmaydi, biroq Belarus JK bo'yicha esa ushbu holat faqatgina yosh bola aybdorning qaramog'ida bo'lgan taqdirdagina jazoni yengillashtiruvchi holat deb topiladi<sup>3</sup>. Yosh bolaning aybdorning qaramog'ida bo'lishi lozimligi Ozarbayjon JKda ham mustahkamlangan. Armaniston jinoyat qonuni esa, jazo tayinlash vaqtida aybdorning qaramog'ida 14 yoshga to'lmagan bolaning mavjud bo'lishi lozimligini ushbu holatni jazoni yengillashtiruvchi deb topish uchun qo'shimcha shart sifatida o'rnatadi. Shunindek, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi singari Qozog'iston va Tojikiston Respublikasining jinoyat qonunlari ham aybdorning yosh bolasi mavjudligi faktining o'zini jazoni yengillashtiruvchi holat deb hisoblaydi. Turkmaniston Jinoyat kodeksi aybdorning yosh bolalari borligi fakti bilan bir qatorda uning ko'p bolali oilasining mavjudligi faktini ham jazoni yengillashtiruvchi holat deb topadi. Moldova

<sup>3</sup> Качан М.И. Обстоятельства, смягчающие наказание, в российском уголовном праве: Дис. ... канд. Юрид.наук. – Ростовна Дону, 2005. С.50

Respublikasi jinoyat qonuni ushbu holatni biroz boshqacharoq shaklda ifodalab, aybdorning oilasida voyaga yetmaganlarlarning mavjudligini yengillashtiruvchi holat sifatida aks ettiradi. Qirg'iziston Respublikasi (54-m) va Ukraina (66-m.) jinoyat qonunlarida esa yuqoridagi holat to'g'ridan-to'g'ri jazoni yengillashtiruvchi holatlar ro'yxatida aks etgan bo'lmasa-da, amaliyotda jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi mumkin. Yuqoridagi MDH mamlakatlarining barchasida «aybdorning yosh bolasi borligi» jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida qaramog'ida 14 yoshgacha yosh bolasi<sup>4</sup> bo'lgan ham erkak, ham ayol kishiga nisbatan qo'llanilishi mumkin bo'lsa, qiziqarli tomoni shundaki, Mongoliya Jinoyat kodeksiga asosan, faqatgina «qaramog'ida 7 yoshgacha bo'lgan ayol tomonidan jinoyat sodir etilishi» jazoni yengillashtiruvchi holat sifatida baholanishi mumkinligini aks ettirgan.

### XULOSA

Olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan qonunchilik sohasiga quyidagi takliflarni kiritish maqsadga muvofiq bo'ladi:

**birinchidan**, amaldagi Jinoyat kodeksining 43-moddasiga jazo turi tariqasida Majburiy mehnat degan jazo turini qo'shish. Bu amaliyot Rossiya Federatsiyasi JK ning 44 va 53<sup>1</sup>-moddalariga 2011-yil 7-dekabrda qo'shilgan va quyidagicha bayon etilgan: “ushbu Kodeks Maxsus qismining tegishli moddalarida nazarda tutilgan hollarda, uncha katta bo'lmagan yoki o'rtacha og'irlikdagi jinoyatni sodir etganlik yoki birinchi marta og'ir jinoyat sodir etganlik uchun ozodlikdan mahrum etishga muqobil chora sifatida qo'llaniladi. Agar sud ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni tayinlab, mahkumni ozodlikdan mahrum qilish joylarida jazoni amalda o'tamasdan tuzatish mumkin degan xulosaga kelsa, ozodlikdan mahrum qilish jazosini mahkum uchun majburiy mehnat bilan bo'lgan ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan almashtirish to'g'risida qaror qabul qiladi. Sud tomonidan besh yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanganda majburiy mehnatga yo'l qo'yilmaydi. Ushbu Kodeksning 80-moddasiga muvofiq ozodlikdan mahrum qilish jazosi majburiy mehnatga almashtirilgan hollar bundan mustasno.

Majburiy mehnat mahkumni jazoni ijro etish tizimi muassasalari va organlari tomonidan belgilangan joylarda ishlashga olib kelishdan iborat. Majburiy mehnat ikki oydan besh yilgacha muddatga tayinlanadi. Ushbu Kodeksning 80-moddasiga muvofiq ozodlikdan mahrum qilish tarzidagi jazoni majburiy mehnatga almashtirish hollari bundan mustasno.

Majburiy mehnatga hukm qilingan shaxsning ish haqidan sud hukmida belgilangan besh baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda davlat daromadiga ushlab qolinadi, jazoni ijro etish tizimining tegishli hududiy organining hisob raqamiga o'tkaziladi.

<sup>4</sup> Жиноят ҳуқуқи назариясида “ёш бола” тушунчаси 14 ёшга тўлмаган шахсларни қамраб олади. Бу ҳақда батафсил қаранг: Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексида шарҳлар (Умумий қисм). Т.: «ILM ZIYO»

Agar mahkum majburiy mehnatni o'tashdan bo'yin tovlagan bo'lsa yoki mahkum majburiy mehnatni o'tash tartibi va shartlarini qasddan buzgan deb topilsa, jazoning o'talmagan qismi bir sutkasi bir kunlik ozodlikdan mahrum qilish bilan almashtiriladi.

Voyaga yetmaganlarga, birinchi yoki ikkinchi guruh nogironi deb topilgan shaxslarga, homilador ayollarga, uch yoshga to'lmagan bolasi bor ayollarga, ellik besh yoshga to'lgan ayollarga, oltmish yoshga to'lgan erkaklar, shuningdek, harbiy xizmatchilarga majburiy mehnat belgilanmaydi."deb bayon etilgan.

**ikkinchidan**, amaldagi Jinoyat kodeksining 55-moddasi 1-qism "z"bandiga javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlar sirasiga qo'shimcha tariqasida quyidagi jumlaning "aybdorning yosh bolasi borligi" qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu norma ko'pgina MDH davlalarining Jinoyat kodekslarida mavjud.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 26-modda. [URL:http://www.lex.uz](http://www.lex.uz).

2. 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan "Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi" ning 11-moddasi

3. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi 16, 55-moddalari. [URL:http://www.lex.uz](http://www.lex.uz).

4. Kriminologiya. Umumiy qism: oliy ta'lim muassasalari uchun darslik/I. Ismoilov, Q. Abdurasulova, I. Fazilov. 2015-y. b-59

5. Jinoya huquqi: Umumiy qism. Darslik./M.H. Rusamboyev. 2007-y.

6. Качан М.И. Обстоятельства, смягчающие наказание, в российском уголовном праве: Дис. ... канд. Юрид. наук. – Ростовна Дону, 2005. С.50

7. 1. "Уголовный кодекс Российской Федерации" от 13.06.1996 N 63-ФЗ (ред. от 29.12.2022) Документ предоставлен КонсультантПлюс. [www.consultant.ru](http://www.consultant.ru)

8. Рустамбоев М.Х. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодексига шархлар (Умумий қисм). Т.: «ILM ZIYO».